

AMIR TEMUR- TARIX SAHNASIDA BUYUK DAVLAT ASOSCHISI VA ZABARDAST SARKARDA

Abdumalikova Rohatoy Abdug'offor qizi

Qoqond University Andijon filiali filologiya yo'nalishi talabasi.

Email pochta: rohatoyabdumalikova1@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqolada Amir Temurning tarixiy sahnadagi o'rnini, uning buyuk davlat asoschisi va zabardast sarkarda sifatidagi faoliyati tahlil qilinadi. Maqolada Amir Temur asos solgan Temuriylar davlati, uning yuritgan adolatli siyosati, harbiy strategiyasi va ilm-fan, madaniyat rivojiga qo'shgan hissasi yoritiladi. Shuningdek, uning merosi bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmaganligi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlari: Buyuk, davlat, sarkarda, ilm-fan, shoir, qo'shin, madaniyat, shajara, harbiy yurishlar, kuch-qudrat, janglar, kurashlar.

Amir Temur (to'liq ismi Amir Temur ibn Amir Tarag'ay ibn Amir Barqul) 1336-yil, 9-aprel, Kesh yaqinidagi Xoja Ilg'or qishlog'ida tug'ilgan. Amir Temur o'rta asrning yirik davlat arbobi, buyuk sarkarda, kuchli, markazlashgan davlat asoschisi, ilm-fan va madaniyat homiysi hisoblanadi. Buyuk ajdodimiz – Sohibqiron Amir Temur nafaqat o'zbek xalqining, balki bashariyatning ham qalbidan chuqur joy olgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Shu kunlarda Sohibqiron Amir Temur tavalludining 689 yilligi yurtimiz bo'ylab katta xursandchilik bilan o'tkazilmoqda. O'zbekiston xalqaro islom akademiyasida ham sana munosabati bilan "Sohibqiron Amir Temur – buyuk davlat arbobi" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi. Temurbekning opasi Qutlug' Turkon og'o va singlisi Shirinbeka og'o edi. Ular Temurbekdan oldin o'lishgan va Samarqanddagi Shohi Zinda majmuasidagi maqbaralarda ko'milishgan Tarag'oy, Amir Tarag'oy, Tarag'oybek — Amir Temurning otasi. Chig'atoy ulusining nufuzli beklaridan biri, barlos qabilasi oqsoqollaridan bo'lgan. Tarag'oy ajdodlari Chingizxon va Chig'atoy saroyiga yaqin bo'lishgan, keyinchalik ular Kesh viloyatini idora etganlar. Temurning o'zi ham Amir Hazag'onning ishonchli beklaridan sanalgan. Chig'atoy ulusi hukmdorlari tomonidan Ili daryosi bo'yida har yili chaqiriladigan qurultoyga boshqa viloyat beklari qatorida Tarag'ay ham qatnashgan. T.ning Movarounnahr va Mo'g'o'listondagi mashhur amirlardan do'stlari ko'p bo'lgan, bu hol keyinchalik Amir Temurga qo'l kelgan. Temurbeklar xonadoniga mansub bo'lsada, otasi Amir Bargul kabi harbiy ishga mayli bo'lmagan. Tarag'ay taqvodor musulmon bo'lib, ko'p vaqtini darveshlar bilan o'tkazgan. Sharafuddin Ali Yazdiyning yozishiga ko'ra, "Tarag'oybek ulamo va sulaho va muttaqiylarga mushfiq va mehribon erdi va bularning majlisiga borur erdi...". Tarag'ay Shamsuddin Kulolnm o'ziga pir tutgan.

Tarag'ayning xotini Buxoro fuzalolarining peshvosi usha'laning qizi Takina xotun bo'lgan. Temurbekning yoshligi Keshda kechadi. Otasi Tarag'aybek o'z chog'ining odatlariga ko'ra Temurbekka ot minish, ov qilish, yoydan o'q otishni o'rgatuvchilarni tayin qiladi. Shu yuzdan Temurbek 18-20 yoshlarida tulporlarni yaxshi ajrata oladigan epchil otliq va qo'rqmas bahodir bo'lib ulg'ayadi. Temurbekni yoshligida madrasaga ham beradilar. Biroq Temurbekning o'qimishsiz bo'lganligi tog'risida kunbotar ellari o'rtasida yanglish qarash ular chindek o'rtnashib qolgan. Temurbek o'zi to'g'risida kitobida 21 yoshga to'lganida otasining hosili yaxshi bo'lganini, qoramol va yilqilar ko'p bolalaganini, o'zi ularni 10 tadan qilib ishchilariga bo'lib berganini yozadi. Temurbekning yoshlik yillari to'g'risida bilgilar juda oz. Amir Temur saltanatida davlat boshqaruvi va harbiy tizim Sohibqiron Amir Temur zamonasining talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib davlat boshqaruvini takomillashtirdi, yangicha ruh va mazmun bilan boyitdi. Davlatning tarkibiy tuzilishi harbiy-siyosiy tartiblarga asoslangan bo'lsa-da, jamiyat rivoji uchun barcha tabaqalarning manfaatlarini ta'minlash nazarda tutilgan edi. Amir Temur saltanatida davlat boshqaruvi ikki idoradan: dargoh va vazirlik (devon)dan iborat bo'lgan. Dargohni Oliy hukmdorning o'zi boshqargan. Ijroiya hokimiyat – devonni devonbegi (bosh vazir) boshqargan. Devonda harbiy vazir, mulkchilik va soliq ishlari vaziri, moliya vaziri faoliyat yuritgan. Suyurg'ol yerlar Amir Temur ulkan saltanat tasarrufidagi o'lkalarni asosan to'rt qism (ulus)ga bo'lib, o'g'illari, nabiralari va xizmat ko'rsatgan amirlariga suyurg'ol tarzida in'om qiladi. Movarounnahrda tashqari o'z tasarrufidagi barcha viloyat va mamlakatlarni Amir Temur o'limidan biroz avval o'g'il va nabiralari orasida taqsimlaydi: Xuroson, Jurjon, Mozandaron va Seyiston (markazi Hirot) Shohruxga, G'arbiy Eron, Ozarbayjon, Iroq va Armaniston (markazi Tabriz) Mironshohga, Fors, ya'ni Eronning janubiy qismi (markazi Sheroz) Umarshayxga, Afg'oniston va Shimoliy Hindiston (markazi G'azna, keyinchalik Balx) Pirmuhammadga suyurg'ol qilib berilgan. Uslar markaziy hukumatga itoat etsa-da, ammo ma'lum darajada mustaqillikka ega edi. Uslar hukmdorlarining alohida davlat devonxonasi va qo'shini mavjud edi. Ularning markaziy hukumatga tobeligi xirojning bir qismini Samarqandga yuborib turish va oliy hukmdor harbiy yurishlarida o'z qo'shini bilan qatnashish yoki talab qilingan askarni yuborib turishdan iborat edi. Qo'shin tuzilishi Amir Temur davlat mustaqilligi va muhofazasi yo'lida ichki va tashqi siyosatda asosan qo'shinga suyanar edi. Shuning uchun ham Temur qo'shin boshliqlarini tanlash va ularni tarbiyalash, harbiy qismlar va ularning joylashish tartibi, navkar va sarbozlarning qurollanishi hamda ichki intizom masalalariga nihoyatda katta ahamiyat berardi. Sohibqiron intizomli qo'shin tuzishga, jang paytida qo'shin qismlarini oqilona boshqarishga, jang taqdirini hal qiladigan joylarga harbiy kuchlarni tezkorlik bilan yo'llashga, mavjud to'siq va g'ovlarni tadbirkorlik bilan bartaraf etishga, qo'shindagi jangovar ruhni yuksak darajada ushlab turishga erishgan. Amir Temur qo'shiniga chorvadorlar qatori

o'troq aholidan ham askarlar to'plangan. Askariy qismlarni viloyatlardan to'plash bilan tavochi mansabidagi amaldorlar shug'ullanar edi. Qo'shinda harbiy kuchlarning asosini tashkil qilgan otliq askarlar bilan bir qatorda piyodalar ham xizmat qilgan. Amir Temur qo'shini son jihatdan aniq tashkil etilgan, jangovar tartibi takomilashtirib borilgan, zamonasining ilg'or qurol va texnikasi bilan ta'minlangan, qismlar bir-biridan kiyim-bosh, bayroq va tug'lari bilan farqlangan. Bunday farqlanish jangda qo'shinni boshqarishda qo'l kelgan. Amir Temur qo'shini o'ntalik askariy birikmalar asosida tuzilgan harbiy qismlardan iborat edi. Lashkar tuman – o'n minglik, hazora – minglik, qo'shun – yuzlik va ayl – o'nlik birikmalariga bo'lingan. Amir Temur o'n minglik askarni boshqarish uchun tuman og'asi, minglik bo'linmalar uchun mirihazora, yuzliklar uchun qo'shunboshi va o'nliklar uchun esa aylboshi kabi harbiy mansablarni ta'sis etadi. Sohibqiron Sharqda birinchilardan bo'lib qo'shinga o'tsochar qurol – to'pni olib kirgan. Tog'li hududlarda jang harakatlari olib boruvchi maxsus harbiy qism va bo'linmalar tashkil qilingan. Ibn Arabshohning guvohlik berishicha, Sohibqiron qo'shinida ayollardan iborat bo'linmalar bo'lib, ular erkaklar bilan bir safda turgan, qahramonlik va matonat namunalarini ko'rsatgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1991.
2. Barthold V.V. Turkiston mongollar istilosi davrida. – Toshkent: Fan, 1993.
3. Sultonov R. Amir Temur – Sohibqiron sarkarda. – Toshkent: O'zbekiston, 1996.
4. Qayumov A. Amir Temur siymosi tarixda va badiiy adabiyotda -Toshkent: Fan, 1996.
5. Bobojonov S. Temuriylar davlati: Siyosiy va ijtimoiy tuzilma. – Toshkent: Ma'naviyat, 2005.
6. Xudoyberganov M. O'rta asrlar Sharq davlatlari tarixi.